

**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALARNING O‘RNI HAMDA MUHIM
PSIXOLOGIK AHAMIYATI**

Hurifarxon Axmedova Abdusattorovna

*Farg‘ona viloyati Farg‘ona tumani MMTB tasarrufidagi
1-umumiy o‘rta ta’lim maktabi psixologi*

Annotatsiya: Tarbiya bizdan ko‘p narsalarni talab qiladi. Masalan, oila muqaddasligini chuqur anglash kerak. Avlodlar o‘zgarishi mumkin, yillar bir-biriga o‘xshamasligi mumkin. Ammo yurakdagi mehr-muhabbat hech qachon o‘zgarmaydi. Muhabbat bu- avvalo inson o‘ziga ishonishi, o‘zini hurmat qilish uchun ham jasorat talab qiladi. Farzandlar o‘zidan o‘zi katta bo‘lib qolmaydi ularga kiyim, oziq-ovqat, uy-joy zarur. Shuningdek, albatta ta’lim olishi uchun sharoit kerak.

Kalit so‘zlar: oila, jamiyat, tarbiya, ruhiy taraqqiyot, psixik jarayonlar, muloqot, ong, oiladagi muhit, hamkorlik

KIRISH

Farzand – oilaning quvonchi, ota-onaning tayanchi, jamiyatning hayotbaxsh kuchi. Buyuk uzbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy bolani «mexri anbar» - uyni yoritadigan va oilaga baxt-quvonch keltiradigan nur deb xisoblagan edi. Farzand umr mevasi, oila faxri, kelajagi, baxtidir. Ammo tarbiya nihoyatda mashaqqatli ish bo‘lib, ota-onalar bolalar tarbiyasida har doim ham istagan natijalariga erishavermaydilar. Xayotining birinchi yilidan boshlab bola shaxsini shakllantirish, ya’ni uning tarbiyasi bilan shug‘ullanish oilaning asosiy vazifasidir. Oila jamiyatning boshlang‘ich bo‘g‘ini bo‘lib, unda yangi inson vujudga kelad; bu kichik ijtimoiy guruh bola uchun dastlabki xayot maktabidir. Ota-onalar bolaning birinchi o‘qituvchisi va tarbiyachisidirlar.

XXI asrda turli hayot tarzlari va g‘oyalar raqobatga kirishdi. Bunda muvaffaqiyatga erishish uchun har bir davlat o‘zligini saqlagan holda diniy va milliy qadriyatlarini boshqalarga anglatishni asos qilgan mafkuraga ega bo‘lishi lozim. Aks holda, o‘zlikni yo‘qotish, bebaho qadriyatlardan voz kechish kishini taraqqiyotdan ajratib, uni tobe, mustaqil fikri yo‘q manqurtga aylantirib qo‘yadi. Hozirgi kunda g‘arazli maqsadlarni amalga oshirish uchun zimdan olib borilayotgan fitnalar ba’zi

millatlarning o'zligini yo'qotishga qaratilganini sezish mumkin. Bunda e'tibor xududlarini egallash emas, balki inson ongini egallashga yo'naltirilgan.

Albatta bola tarbiyasi o'ta murakkab va ma'suliyatlidir. Bu har bir otaonadan o'z ustida muntazam ishlashni, bolalar tarbiyasiga oid barcha ma'lumotlardan baxobar bo'lib borishni talab etadi. Farzand tarbiyasi bu shunchaki tajriba, oddiy ko'rsatma va bilimlar jamlanmasi emas, balki o'z ichiga diniyaxloqiy bilimlar, tibbiyot, etika, psixologiya, pedagogika kabi sohalariga oid bilimlarni ham qamrab oladigan murakkab jarayondir.

Bugungi kunda oilaviy tarbiyaning qiyinlashuvi shundaki, birinchidan, jamiyat taraqqiy etib borgani sari har tomonlama yetuk insonni shakllantirish talablari ortib boraveradi. Bu esa oilada bolaga estetik, jinsiy tarbiya, axloqiy tarbiya berish sifati va ko'lamini oshirish talabini qo'yadi. Ta'lim-tarbiya, odob-axloq bolalikdan berilgani ma'qul. Rasululloh (a.s.): "Birontangiz o'z farzandlaringizni tartib-intizomga o'rgatsa, bu har kuni sadaqa bergandan yaxshiroqdir", deya marhamat qilganlar.

Bolalarni intizomga o'rgatish oila mustahkamligiga asos bo'ladi. Islom shu ma'noda ota-onalarni o'z farzandlariga sog'lom tarbiya berishga rag'batlantiradi. Hadisi sharifda "Farzandlaringizni hurmat qiling va ularni yaxshi xulq bilan xulqlantiring" deb ta'kidlangan.

Farzand tarbiyasi jarayonida bola huquqlarining kamsitilmasligi talab etiladi. Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaga nisbatan bolalarning ruhiy olamiga, hissiyoti va tuyg'ulariga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Taniqli pedagog A.S.Makarenko besh yoshgacha bo'lgan tarbiya bolaning shaxsiyati shakllanishida o'ta muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etib o'tgan. Bu haqda u shunday deb yozgan: "...tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga yetadi, demak, siz besh yoshgacha nima qilgan bo'lsangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90 foizini tashkil etadi, keyingi tarbiya esa qayta tarbiyalash negizida davom etadi". Mana shu jarayonda bola tarbiyasiga o'ta e'tiborli bo'lish lozim.

Yoshlarning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usini shakllantirishda, har jihatdan barkamol etib tarbiyalashda buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi katta ahamiyat kasb etadi. Zero, hayotning asl mazmun-mohiyatini anglab yetishga o'z umri va salohiyatini bag'ishlagan allomalarimizning asarlarida sog'lom avlod tarbiyasi bilan bog'liq masalalarga alohida o'rin berilgan.

Sharq allomalari o'z asarlarida farzandlarga tarbiya va ta'lim berish, uni ma'rifatu madaniyatga yetaklash muammolariga e'tibor berganlar. Buyuk mutafakkirlar farzand tarbiyasi, go'zal axloqning inson kamolotiga sabab bo'luvchi yuksak fazilat ekanini ta'kidlaganlar. Jumladan, Imom Buxoriyning "alAdab al-mufrad" hadislar to'plami, Abu Lays Samarqandiyning "Tanbehul g'ofiliyn" asarlarida farzandlarga yuksak insoniy fazilatlarni kamol toptirish tarannum etilgan.

Yurtimiz ulamolari o‘z asarlarida farzandining chiroyli odobidan umid qilgan ota-ona, uni muntazam ravishda husni xulq asosi bo‘lgan muomala odobining quyidagi qirralari bilan tanishtirib borishi muhim ekanini alohida ta’kidlaganlar:

- farzandingiz odamlar bilan muomalada shirinso‘z, muloyim, bosiq va kamtar bo‘lishiga e’tibor qarating;
- odamlar xursandchiligini baham ko‘rish, g‘am-anduhidan qayg‘urish, molmulkiga xiyonat qilmaslik, yaxshilikka chorlab, yomonlikdan qaytarish husni xulq egalariga xos fazilatlaridir. Shuning uchun farzandingizga ana shu xislatlarni bolalikdan singdirish payida bo‘ling;
- farzandingizga o‘zgalar bilan muomala chog‘ida boshqalarni g‘iybat qilish, o‘zgalarini mensimaslik, obro‘si, boyligi yoki mansabiga qarab munosabat ko‘rsatish ham odobsizlik ekanini uqtirib boring;
- yoshi ulug‘ kishilar, ustozlar bilan muomalada ularning ko‘ziga tik boqmay, gaplarini jim tinglash, savollarigagina javob qaytarish, buyruqlarini sidqidildan bajarish ham bolalar qalbiga jo qilishga e’tibor bering.

Mamlakatimizda sodir bo‘layotgan iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarning xalq milliy ruhiyatining negizi bo‘lmish oilaviy munosabatlarda aks etishini tadqiq etish muhim masaladir. Oilaviy munosabatlar tizimi juda murrakkab va ancha teran mazmunga ega bo‘lib, o‘z ichiga er-xotin o‘rtasidagi, ota-ona va farzandlar, aka-uka va opa-singillar o‘rtasidagi va shu kabi qator munosabatlar tizimini oladi. Oiladagi shaxslararo munosabatlar shaxs shakllanishining muhim omili hisoblanadi. Oilaning eng muhim vazifalaridan biri shaxs rivojlanishi uchun munosib sharoitni yaratishdir.

Psixologik amaliyotda eng ko‘p to‘qnash kelish mumkin bo‘lgan masalalardan biri – ota-onalarning voyaga yetgan farzandlari bilan bo‘ladigan munosabatlariga doir muammolardir. Odatda bunday muammo bilan ko‘pincha ona murojaat qiladi, biroq ota-ona, ba’zan otaning o‘zi yordam so‘raydigan holatlar ham uchraydi. Ota-onalarning farzandlari borasidagi munosabatlarini shartli ravishda to‘rt guruhga bo‘lish mumkin (albatta, mazkur shikoyatlar bir-birini inkor qiladigan emas, balki taqozo etadigan muammolar bilan bog‘liq bo‘ladi):

1. Farzandlar bilan muloqotning yo‘qligi: ularning qanday yashayotganlari, qiziqishlari, intilishlarini bilmaslik, bolalari bilan «ochilib» gaplashmaslik, ota (ona) sifatida begonaligini his etish va h.k. Bunday muammolarga ega mijozlar uchun farzandlari to‘g‘risidagi quyidagi fikr-mulohazalar xos bo‘ladi: «Men uni umuman tushunmayman», «Men uning qaerlarda bo‘lishi, do‘stlari xususida hech narsa bilmayman», «U menga o‘zi haqida hech narsa demaydi, menga ishonchsizlik bilan qaraydi» va sh.k.

2. Farzandlarning ota-onaga nisbatan hurmatsizlarcha, keskin munosabati; arzimagan sabablar bilan doimiy nizoga borishi, janjallashishi. Bunday holga «U doim

menga qo‘pollik qiladi, men bilan hisoblashmaydi, menga biror narsada ko‘maklashmaydi, yordam bermaydi» qabilidagi shikoyatlar xosdir.

Jamiyatimizda olib borilayotgan barcha o‘zgarish va ma’naviy islohotlar jamiyatda komil-barkamol shaxsni tarbiyalashga qaratilgandir, bu esa o‘z navbatida yaxshi fuqaro, jamiyatning barkamol a’zosini tarbiyalash hamdir. Shuning uchun oila muhitida ota-ona va farzand orasidagi munosabatlarni to‘g‘ri tashkil etish bilan oilada yuz berishi mumkin bo‘lgan nizolarning oldini olinadi.

Tarbiya bizdan ko‘p narsalarni talab qiladi. Masalan, oila muqaddasligini chuqur anglash kerak. Avlodlar o‘zgarishi mumkin, yillar bir-biriga o‘xshamasligi mumkin. Ammo yurakdagi mehr-muhabbat hech qachon o‘zgarmaydi. Muhabbat bu- avvalo inson o‘ziga ishonishi, o‘zini hurmat qilish uchun ham jasorat talab qiladi. Farzandlar o‘zidan o‘zi katta bo‘lib qolmaydi ularga kiyim, oziq-ovqat, uy-joy zarur. Shuningdek, albatta ta’lim olishi uchun sharoit kerak. Afsuski, hozirgi kunda ular uchun qo‘l telefoni zarur deb hisoblashadi. Biroq farzandlar tarbiyasi uchun eng muhimi insoniy samimiyat va ota-onaning e’tibori va mehr-muhabbatidir. Shunaqangi me’yorlar mavjudki ularni o‘zgartirish mumkin emas. Bu insonni biologik xususiyatlari hisoblanadi.

Har bir bola o‘zi bir mo’jiza! Har bir oila o‘zi bir saltanat! Shuning uchun o‘zaro munosabatda juda ehtiyotkorlik darkor. Donishmandlarning ta’kidlashicha:

- Agar bola tanqidiy ruhda yashasa, u ayblashni o‘rganadi.
- Agar bola adovat bilan yashasa, u urishishni o‘rganadi.
- Agar bola qo‘rquvda yashasa, u qo‘rqoqlikni o‘rganadi.
- Agar bola afsusda yashasa, u afsuslanishni o‘rganadi.
- Agar bolaning ustidan ko‘p kulishsa, uyatchan bo‘lishni o‘rganadi.
- Agar bola qiziqish bilan yashasa, u havas qilishni o‘rganadi.
- Agar bola uyat bilan yashasa, u aybdorlik hissini o‘rganadi.
- Agar bola qo‘llab-quvvatlash bilan yashasa, u o‘ziga ishonishni o‘rganadi.
- Agar bola bag‘rikenglikda yashasa, u sabrli bo‘lishni o‘rganadi.
- Agar bola maqtoov bilan yashasa, u qadrlashni o‘rganadi.
- Agar bola tan olish bilan yashasa, sevishni o‘rganadi.
- Agar bola rostgo‘ylik va adolatda yashasa, u haqiqat va adolat nimaligini o‘rganadi.
- Agar bola xavfsizlikda yashasa, u o‘ziga va atrofidagilarga ishonadi.
- Agar bola do‘stlik bilan yashasa, u yer yuzi yashash uchun ajoyib joy ekanligini anglaydi.
- Agar siz osoyishtalik bilan yashasangiz, sizning farzandingiz ham osoyishtalikda yashaydi.

Bola oilada shakllanadi, ravnaq topadi. Shu sababdan oila bola uchun tarbiya o'chog'idir. Oila institutini yanada mustahkamlash va rivojlantirish, yurtimizda oilalarni, ayniqsa, yosh oilalarning huquqiy va ijtimoiy – iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish, jismonan sog'lom, ma'nan yetuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning rolini mustahkamlash, sog'lom oilani shakllantirish, mahallalar mavqeini mustahkamlash va rolini kuchaytirish, borasida olib borilayotgan islohatlarni yanada rivojlantirishga doir keng ko'lamli chora-tadbirlar tashkil etilmoqda. Sog'lom bola tarbiyasida mahallaning rolini kuchaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqilmoqda. Sog'lom bolaning shakllanishida ta'lim va sportning rolini kuchaytirish, ularni zamon talablariga muvofiq jihozlash, yuqori malakali pedagog va mutaxassislar bilan ta'minlash, bolalarni maktabga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, boshlang'ich ta'lim sifatini yuksaltirish, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish, sog'lom turmush tarzini faol targ'ib etish, bolalar, ayniqsa, qizlar o'rtasida jismoniy tarbiya va sportga mehr uyg'otish bo'yicha aniq choratadbirlarni amalga oshirish hamda Kam ta'minlangan oilalarda voyaga yetayotgan ukuvchilarni sport turlari va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishga keng jalb qilish. Iqtidorli bolalarning intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yanada yaxshilash maqsadida iqtidorli bolalarning individual salohiyatini rivojlantirish va ro'yobga chiqarish maqsadida ularning xalqaro fan olimpiadalarida ishtirokini ta'minlash umumta'lim maktab o'quvchilari o'rtasida qarovsizlik, huquqbuzarlik, jinoyatchilik va giyohvandlikning oldini olish bo'yicha profilaktik tadbirlar majmuini o'z ichiga oladi.

Bola tarbiyasida uning ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Aynan oilada milliy iftihor tuyg'usi shakllanadi. Milliy iftihor esa insondagi yuksak ma'naviy fazilatlarni hosil qiladi. Ushbu insoniy fazilatlar esa Vatan, uning istiqboli, milliy manfaatlar bilan uzviy bog'liqdir. Kattalarga izzat-ikrom, kichiklarga mehr, ota-onalarga e'zoz, farzandlarga mehruhabbat kabi insonni inson sifatida ulug'laydigan, ma'naviy-axloqiy jihatdan go'zal va barkamol qiladigan qadriyatlarimiz har bir fuqaro, ayniqsa, yoshlar qalbidan mustahkam o'rin olishi lozim.

Ma'lumki, xalqimiz azal-azaldan o'zining bolajonligi, oilaparvarligi bilan ajralib turadi. Albatta, farzandga mehr qo'yish, uning qornini to'q, ustini but qilish bilan bir qatorda, ularni yoshlik chog'idan boshlab tarbiya, axloq-odob, yuksak ma'naviyat, o'z yurtiga sadoqat kabi tuyg'ularni shakllantirish asosida voyaga yetkazish doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Bu masalaga e'tibor bermaslik nafaqat oila, mahallasi uchun, balki butun jamiyat rivojiga to'sqinlik qilishi va salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkinligini ham ko'pgina hayotiy misollarda kuzatilgan. Zero, kishining kundalik hayoti va faoliyatida moddiy va ma'naviy asoslar har doim bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Oila va nikohning muqaddasligini anglash,

oilani huquqiy asosda qurish, turli yot g'oyalarga berilib ketmaslik-dan ogoh bo'lish, ota-onaning bolalar oldidagi, farzandlarning ota-ona oldidagi burch va vazifalarini singdirishda huquqiy tarbiyaning ahamiyati katta. O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksining 73moddasida quyidagi qoidalar belgilab qo'yilgan:

Ota-ona o'z bolalarini tarbiyalash huquqiga ega va tarbiyalashi shart. Ota-ona o'z bolalarining tarbiyasi va kamoloti uchun javobgardir. Ular o'z bolalarining sog'lig'i, jismoniy, ruhiy, ma'naviy va axloqiy kamoloti haqida g'amxo'rlik qilishlari shart. Ota-ona o'z bolalarini tarbiyalashda boshqa barcha shaxslarga nisbatan ustun huquqqa ega. Ota-ona bolalarining qonun hujjatlarida belgilangan zarur darajada ta'lim olishini ta'min-lashi shart. Har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o'z ota-onasini bilish, ularning g'amxo'rligidan foyda-lanish, ular bilan birga yashash huquqiga ega, bola manfaatlariga zid bo'lgan holatlar bundan mustasnodir. Binobarin, jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning roli muhim hisoblanadi. Yoshlarni "intellektual nuqtai nazardan barkamol, yoshlari bilimli, or-nomusli, vatanparvar" qilib voyaga yetkazish uchun esa ta'lim bilan tarbiyani bir-biriga uzviy tarzda olib borish kerak. Ta'lim-tarbiya tizimining bugungi kundagi asosiy vazifasi o'sib kelayotgan yoshlarni vatanparvar, zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirgan hamda jamiyatda o'z munosib o'rnini egallashga qodir bo'lgan - komillikka intiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazishdir.

XULOSA

Insonni shaxs bo'lib shakllanishida, hayotda o'z o'rnini topishi, el-yurt ichida izzat-hurmatga ega bo'lishi, yuksak axloq-odob qoidalarini o'zida mujassam etishida u yashab turgan oila va mahala asosiy poydevordir. Bu poydevorning mustahkamligi oilaviy an'analarning bardavomligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarining uyg'unligini ta'minlashi ota-onalar va keksa avlodning jamiyatdagi halol mehnati, oila va turmush doirasidagi shaxsiy o'rnagi, ajdodlari beradigan oqilona o'g'itlari, cheksiz va samimiy g'amxo'rligiga ko'p jihatdan bog'liq. Xalqimizning shunday ezgu maqsadlarini ro'yobga chiqarish yo'lida mustaqillik yillarida Yurtboshimiz rahnamoligida ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini zamon talablari darajasiga ko'tarish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019 yil 31-dekabrda 1050-sonli qarori.
2. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. –T.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2010.

3. Alimova G., J. Kamolov, Sh. Abdullaeva. “Oila –mahalla –ta’lim muassasasi” hamkorligi. T., 2014. –64 b.
4. Ziyonet

